

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

## Том 1, Выпуск 3, 30 Ноября

### Social-psychological correction of adolescents with difficulty in adaptation

**Odilova S.K.**, Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti  
Ilmiy rahbar **Sobirov.A.A.** psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD,  
dotsent.

#### Annotatsiya

Pedagog tomonidan "moslashuvchanligi qiyin bo'lgan o'smirlarni" o'smirlardagi "men timsoli" korreksiyasi haqidagi qaror qabul qilish jarayonida o'smirlik davrining xususiyatlari haqidagi bilimlar kasbiy ta'sirning konkret usullarini amalga oshirishda asosiy vosita hisoblanadi. Biz o'z tadqiqotimiz doirasida o'smirlik davri xususiyatlari, o'smirdagi "men timsoli" xususiyatlari haqidagi to'xtalib o'tish zarur deb hisobladik. Zamonaviy ijtimoiy muhit o'smir shaxsiga u rioya qilishi kerak bo'lgan me'yorlar to'plamini taklif etadi.

**Kalit so'zlar:** moslashuvchanligi qiyin bo'lgan o'smirlar, o'zini o'zi aniqlash, avtoritet, motivatsion ziddiyat.

Ijtimoiy muhitning ko'p omilliligi o'smir uchun ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lib, unda hayotiy ehtiyojlar, avtoritet, mavqeli-rolli o'zaro munosabatlar, pozitsiya, dispozitsiya, xulq atvorni shakllantirishga yo'naltirilgandir. Biroq bugungi o'smirlarning rivojlanishidagi ijtimoiy vaziyat ularni tarbiyalovchi shaxslarning kamolga etishini belgilab bergen xususiyatlardan tamomila farq qiladi. Bu o'z navbatida ularning o'zini o'zi baholash, o'zlari haqidagi tasavvurlari psixologik mazmunining o'zgarishiga olib keldi.

O'smir holatidagi ichki motivatsion ziddiyatlarning mavjudligi uning ijtimoiy rollari va ehtiyojlari darajasi tuzilmasining o'zgarishi bugungi o'smirlar faolligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Men" timsolini talqin qilish muammosi o'zini-o'zi aniqlash bilan bevosita bog'liqdir. Binobarin, o'zini o'zi aniqlash muammosiga psixologik yondashishning metodologik asoslari S.L. Rubinshteyn tomonidan ifodalab berilgan edi. O'zini o'zi aniqlash muammosi S.L. Rubinshteyn tomonidan taddiq qilinishicha tashqi sabablar ichki sharoitlarga singgan holda harakat qiladi: tashqi sabablar ichki sharoitlar orqali shunday ta'sir qiladiki, bunda ta'sir samarasi ob'ektning ichki xossalariiga bog'liq bo'ladi – bu tezis har qanday determinatsiya boshqa tashqi determinatsiya sifatida va o'zini o'zi aniqlash sifatida zarurligini bildiradi (Ob'ektdagi ichki xossalarni aniqlash. Mazkur yondashuv N.V.Samoukina tomonidan e'tirof etiladi. Mazkur kontekstda o'zini o'zi aniqlash o'zini o'zi determinatsiyalash sifatida qatnashadi, tashqi determinatsiyadan farqli ravishda o'zini o'zi aniqlash tushunchasida shu tarzda "ichki sharoitlar"ning

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

## Том 1, Выпуск 3, 30 Ноября

faol tabiatni namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari inson mavjudligi xususiyatining o‘zi ham o‘zini o‘zi aniqlash va boshqalar (sharoitlar, holatlar) tomonidan aniqlash o‘rtasidagi mutanosiblik me’yorida, insonda ong va xatti-harakat mavjudligi bilan bog‘liq o‘zini o‘zi aniqlash xarakterida ifodalanadi. Shunday qilib, konkret psixologik nazariya darajasida o‘zini o‘zi aniqlash muammosi quyidagicha ko‘rinishga ega. Inson uchun tashqi sabablar, tashqi determinatsiya – bu ijtimoiy sharoitlar va ijtimoiy determinatsiya. O‘zini o‘zi aniqlash o‘zini o‘zi determinatsiyalash sifatida tushunilganda ijtimoiy determinatsiya mexanizmi bo‘lib, sub’ektning o‘zi tomonidan faol singdirilmasdan boshqacha ta’sir qila olmaydi. O‘zini o‘zi aniqlash muammosi, shu tariqa individ va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir muammosi bo‘lib, uning markazida mana shu o‘zaro ta’sirning asosiy ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi: individual ongning ijtimoiy determinatsiyasi (kengroq-psixikaning) va bu determinatsiyada sub’ektning xususiy faolligi bilan baholanadi. Turli darajalarda bu o‘zaro ta’sir o‘zining maxsus xarakteristikalariga ega, ular o‘zini o‘zi aniqlash bo‘yicha turli psixologik nazariyalarda o‘z aksini topgan. S.L.Rubinshteynning ta’kidlashicha, har bir inson ongli ijtimoiy sub’ekt bo‘lish bilan bir vaqtida shaxs hamdir. Boshqa odamlarga o‘z munosabatini aniqlab, u o‘zini o‘zi aniqlaydi. Shaxs o‘zining real borlig‘ida, uning o‘zini o‘zi anglashida o‘zini sub’ekt sifatida anglagan holda o‘zini “Men” bilan ataydigan insondir. O‘zini o‘zi aniqlash mexanizmi – bu insonni atrof-muhitga va bu muhitda o‘ziga umumlashtiril-gan munosabatini rivojlanтирувчи sub’ekt sifatidagi kamolga yetishidir. S.L.Rubinshteyn g‘oyalarini davom ettirib va rivojlanтирib A.D.Glotochkin shuni ta’kidlaydiki, atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir shaxsning dinamik o‘zini o‘zi aniqlashini nazarda tutadi. U o‘z tadqiqotlariga asoslangan holda shuni aytib o‘tadiki, shaxs psixologik tuzilmasi konsepsiyasining hech biri dinamik bo‘la olmaydi.

Shaxsning rivojlanuvchi, o‘zgaruvchi mikromuhit bilan mutanosiblashuvi (shaxs gomeostazi) o‘ziga baho berishning davriy o‘zgarishi (qanday edim, qandayman, qanday bo‘lishni xohlayman), shuningdek atrofdagi boshqa odamlar bilan solishtirishda o‘zini o‘zi baholashni taqozo etadi, bu omillarga ijtimoiy muhitga ichki yo‘nalganlik adekvatligi bog‘liqdir. O‘smirning o‘zini o‘zi aniqlashi boshqa odamlar va narsalarga nisbatan ijtimoiy pozitsiyasining shakllanganligi, o‘zini jamiyatning mustaqil a’zosi sifatida sub’ektiv anglash bilan bog‘liq bo‘lib, refleksiya rivojlanishining ma’lum darjasini bilan taqozo etiladi. Shaxslilik refleksiysi – bu o‘smir tomonidan o‘zini o‘zi, o‘z ichki dunyosini bilishning imkoniyatli variantlaridan biridir. U boshqa odamlar nima haqida o‘ylashlarini

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

## Том 1, Выпуск 3, 30 Ноября

tasavvur qilishga intilib, o‘z xulq-atvori, o‘zining shaxsiy sifatlarini tahlil qiladi, ya’ni boshqa odamlar bilan o‘zaro ta’sirda qanaqa ekanligini tushunishga harakat qiladi. Bunday tahlil natijasida o‘smir o‘z “men”ini bir muncha bilishga erishadi.

O‘smirlilik davrida o‘zini o‘zi anglashning alohida ko‘rsatkichlari taniqli psixolog L.S.Vigotskiy tomonidan ajratib ko‘rsatilgan – o‘z obrazini integratsiyalash, tashqaridan uni ichkariga ko‘chirish va hokazo. Bu yosh davrida o‘ziga “tashqari”dan “ob’ektiv” qarash jarayoni “ichkari”dan sub’ektiv, qarash dinamik pozitsiya bilan o‘rin almashadi. Umuman, o‘zini o‘zi boshqarishda ob’ektning o‘zi haqidagi adekvat tasavvurlari, o‘zini o‘zi anglash imkoniyatlari ishtirok etish lozim bo‘ladi.

### Adabiyotlar ro’yxati:

1. Mahkamov U.I. O‘quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. -T.: FAN, 1995.
2. Isokova M.T. Milliy an’analar va ijtimoiy omillar ta’sirida ilk o‘sirinlarda ma’naviy tasavvurlarni shakllantirish. Fan nomzodi. diss. avtoref., -T., -2012.
3. Mamatov M.M. Etnopsixologiyadan ma’ruzalar matni. ToshDU. “Universitet” nashriyoti, Toshkent. - 2001.